

---

## “USTOZ VA SHOGIRD DUETI” TANLOVI G’OLIBLARI TAQDIRLANDI

Farg’ona viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi hamda [Vodiy1.uz](http://Vodiy1.uz) tahririyati hamkorlikda viloyatdagi o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida “Ustoz va shogird dueti” tanlovini e’lon qilgandi.

Tanlovda Oltiariq tumanidagi 20-IDUM 1-o’rinni, O’zbekiston tumanidagi 49-maktab 2-o’rinni va Rishton tumanidagi 2-maktab 3-o’rinni qo’lga kiritgandi.

Bugun tanlov g’oliblarini taqdirlash marosimi bo’lib o’tdi. Farg’ona viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi mutasaddilari, g’oliblar va Vodiy1.uz tahririyati xodimlari ishtirokida o’tkazilgan marosimda 1-o’rin sohibiga 3 mln, 2-o’rin sohibiga 2 mln va 3-o’rin sohibiga 1,5 mln so’m pul mukofoti topshirildi.



2023-07-06 14:37:38